# XALQ DEPUTATLARI YANGIBOZOR TUMAN KENGASHI

Yangibozor tumani, 221200, J.Manguberdi ko‘chasi, 59-uy, Tel: 0(362) 41-92-303

2023 - yil 29 - dekabr VI-92-184-12-178-K/23 Yangibozor tuman hokimligi

**Yangibozor tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2023-yil 26-dekabrdagi “2024-yil uchun Xorazm viloyatining mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘grisida”gi VI-76-190-12-0-K23-sonli qaroriga muvofiq hamda Xorazm viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 26-dekabrdagi 01-01-38/1682-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashi

**Qaror qiladi:**

1.Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2023-yil 26-dekabrdagi “2024-yil uchun Xorazm viloyatining mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘grisida”gi qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2.Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2023-yil 26-dekabrdagi “2024-yil uchun Xorazm viloyatining mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘grisida”gi qaroriga muvofiq, Yangibozor tumani mahalliy byudjetining 2024-yil uchun daromadlari 56 626 500 ming.so‘m, xarajatlari 128 484 905 ming.so‘m prognoz qilinganligi hamda Respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 56 197 496 ming. so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.2024-yil uchun Yangibozor tumani mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4.2024-yil uchun tuman mahalliy byudjetdan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5.2024-yil uchun tuman mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6.2024-yil uchun tuman mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7.2024-yil uchun viloyat byudjetidan tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8.2024-yil uchun tuman mahalliy byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i.

Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha 2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

b) 3-ilovaga muvofiq quyidagi soliq turi viloyat byudjeti hamda tuman byudjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.

9.Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladigan qo‘shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

Quyidagilar tegishlicha 2024-yil yanvar oyidan tuman byudjetidan moliyalashtiriladi:

Soliq qo‘mitasining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari;

10.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Xalmetov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (X.Karimov), tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i (O‘.Ashurov) mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjet prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

11.Tuman davlat soliq inspeksiyasi (O‘.Ashurov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishi hamda ushbu soliqlarning o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirishga;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda soliqlarning to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rishga;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazishga;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

12.Tuman davlat soliq inspeksiyasi (O‘.Ashurov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karyerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karyerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

13.Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi (J.Kuryazov) tuman davlat soliq inspeksiyasi (O‘.Ashurov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

14.Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (F.Ro‘zmetova) jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlar hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

15.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Xalmetov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini “e-ijro auksion” maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

16.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Xalmetov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarning byudjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

17.Tuman irrigatsiya tizimi bo‘limi (A.Sapayev) va tuman davlat soliq inspeksiyasi (O‘.Ashurov) tuman hokimining qishloq va suv masalalari bo‘yicha o‘rinbosari bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste‘mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarning to‘liq hisoblanishi hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetga to‘liq undirib olinishini ta’minlasin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

18.Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (X.Karimov):

byudjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirsin;

byudjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti har chorakda eshitilib borilsin.

19.Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflar asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larning samarali va maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatish va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga;

mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etishi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

20.Tuman hokimligi:

Tuman byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari Kengashi, Yoshlar ishlar agentligi tuman bo‘limi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

21.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Xalmetov tegishli muassasa va tashkilotlar bilan birgalikda:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga har chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

22.Tuman hokimligi qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

23.Mazkur qaror “Yangibozor ko‘zgusi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

24.Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

25.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi F.Iskandarov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi** **R.Jumaniyazov**

Xalq deputatlari Yangibozor tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-92-184-12-178-K/23-son qaroriga
1-ilova

**Yangibozor tumani mahalliy byudjeti daromadlarining**

**2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari**

ming so‘mda

| **T/R** | **Daromad turlari** | **Jami** |
|---|---|---|
| **JAMI** | | **56 626 500,0** |
| 1 | Foyda solig‘i | 366 000,0 |
| 2 | Aylanmadan olinadigan soliq | 7 301 000,0 |
| 3 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i *(jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari)* | 17 326 500,0 |
| 4 | Aksiz solig‘i, jami | **4 535 000,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | *- benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i* | *4 535 000,0* |
| 5 | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 3 152 000,0 |
| 6 | Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i | 5 341 000,0 |
| 7 | Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 8 816 000,0 |
| 8 | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 5 257 000,0 |
| 9 | Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq | 40 000,0 |
| 10 | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 4 421 000,0 |
| 11 | Davlat aktivlarini joylashtirishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar | 71 000,0 |

Xalq deputatlari Yangibozor tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-92-184-12-178-K/23-son qaroriga
2-ilova

**2024-yil uchun tuman byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdori**

ming so‘m

| Ko‘rsatkichlar | | Miqdori |
|---|---|---|
| | **XARAJATLAR-JAMI** | **128 484 905** |
| **1.** | **Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami** | **79 085 644** |
| | *shu jumladan:* | |
| 1.1 | Maorif | 25 846 603 |
| | - maktabgacha ta’lim | 14 776 168 |
| | - umumiy ta’lim | 11 070 435 |
| 1.2 | Sog‘liqni saqlash | 47 363 959 |
| 1.3 | Madaniyat va sport | 5 763 930 |
| | - madaniyat | 1 694 686 |
| | - sport | 4 069 244 |
| 1.4 | Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi» | 9 200 |
| 1.5 | Ijtimoiy ko‘nikma markazi | 101 952 |
| **2.** | **IQTISODIYOTGA XARAJATLAR** | **16 869 187** |
| 2.1 | Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari | 287 429 |
| 2.2 | Obodonlashtirish | 8 447 130 |
| 2.3 | Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari | 4 000 000 |
| 2.4 | Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari | 1 185 323 |
| 2.5 | Veterinariya qo‘mitasi | 2 073 205 |
| 2.6 | "Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari | 876 100 |
| **3.** | **DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARINI SAQLASH** | **18 073 965** |
| 3.1 | Davlat boshqaruv idoralari | 18 073 965 |
| **4.** | **ZAHIRA JAMG‘ARMASI** | **1 140 288** |
| **5.** | **Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi** | **13 315 821** |

Xalq deputatlari Yangibozor tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-92-184-12-178-K/23-son qaroriga
3-ilova

**Umumdavlat soliqlaridan shahar va tumanlar mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yori**

***Foiz hisobida***

| T/R | Shahar va tumanlar nomi | Aylanma-dan olinadigan soliq | Jismoniy shaxslar-dan olinadi-gan daromad solig‘i | Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risi-dagi deklarat-siyaga asosan to‘laydi-gan, shuning-dek, yakka tartibdagi tadbirkor-lar to‘laydi-gan jismoniy shaxslar-dan olinadigan daromad solig‘i | Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchi-larga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | Jismoniy shaxslar-dan olinadi-gan mol-mulk solig‘i | Yuridik shaxslar-dan olinadigan yer solig‘i | Jismo-niy shaxs-lardan olina-digan yer solig‘i | Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq | Suv resurslari-dan foydalanganlik uchun soliq, *bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno* | Davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Yangibozor tumani | 100 | 50 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |

Xalq deputatlari Yangibozor tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-92-184-12-178-K/23-son qaroriga
4-ilova

**Mahalliy byudjetlarning 2024-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi**

**ming so‘mda**

| **Hudud nomi** | **Daromad*** | **Xarajat** |
|---|---|---|
| Yangibozor tumani | 56 626 500,0 | 128 484 905,0 |

*tamaki, alkogol mahsulotalri, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlarni hisobga olmagan holda

Xalq deputatlari Yangibozor tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-92-184-12-178-K/23-son qaroriga
5-ilova

**Yangibozor tumani mahalliy byudjetining 2024-yilgi yuqori byudjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari**

***ming so‘mda***

| **T/r** | **Shahar va tumanlar** | **Tartibga soluvchi transfert miqdori** | ***shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratilgan mablag‘lar**** |
|---|---|---|---|
| 1 | Yangibozor tumani | 71 858 405,0 | 15 660 909,0 |

*tamaki, alkogol mahsulotalri, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar

Xalq deputatlari Yangibozor tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-92-184-12-178-K/23-son qaroriga
6-ilova

**Yangibozor tumani mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori**

**ming so‘mda**

| **T/r** | **Shahar va tumanlar** | **Miqdor** |
|---|---|---|
| 1 | Yangibozor tumani | 588 000,0 |